



## KINO VA KINO SANOATI RIVOJLANISHI

**Raxmatjonov Ismoilxon Xayrulloxon o'g'li**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Rejissorlik (kino va televideniye rejissorligi)  
mutaxassisligi 2-bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya:** Quyida keltirilgan maqolada kino sanoatimizning rivojlanishida mutaxassis kadrlar va ularni tayyorlash masalasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kino, sanoat, soha, mutaxassis, kadr, rejissor, aktyor, ssenariy.

Bugun dunyoda barcha sohalar kabi kino sanoati ham rivoj topib bormoqda. Bugungi kunda kino hayotimizni bir bo'lagi bo'lib qolgan. Har kim har hil kinoni ma'qul ko'radi. Ba'zi filmlar yaxshilikka chorlasa, ba'zilari insonni to'g'ri yo'ldan adashtiradi. Kino olamida ikkita tushuncha mavjud. Bu Hollywood va Bollywod. Kino sanoati haqida gapirar ekanmiz bu ikki tushunchaga to'xtalmaslikning iloji yo'q.

**KINO SANOATI** — filmdan nusxa ko'paytirish, kinovideokassetalar, kino ishlash uchun asbob-uskunalar, jihozlar ishlab chiqaruvchi, kinotexnika sanoati bilan shug'ullanuvchi soha. Boshqa sanoat tarmoqlaridan farqli o'laroq Kino sanoatining pirovard mahsuli kino va videofilmdir. Bugun dunyoda tanilgan film va uning ijodkorlari kabi o'zbek kinosi va uning ijodlari ham o'z ijod mahsulotlari bilan dunyoga tanilmoqda.

O'zbekistonda kinovideofilmlar ishlab chiqarish bilan «O'zbekfilm» va O'zbekiston hujjatli va ilmiy-ommaviy filmlar kinostudiyasi (SDF), Respublika «Videomarkaz» ishlab chiqarish ijodiy birlashmasi, «Dostonfilm», «Vatan», «Inson», «Imon», «Shod» studiyalari, Eksperimental yoshlar ijodiy birlashmasi, «5-studiya», «O'zbektelevfilm» studiyasi va boshqa har xil egalik shaklida faoliyat ko'rsatayotgan studiyalar shug'ullanadi. O'zbekiston Kino sanoati tarkibiy qismiga «Ishonch-M» («O'zbekkinodetal» zavodi) ochiq turdagi aksionerlik jamiyati, «O'zbekkinota'minot» firmasi, kinoteatrlar, joylardagi ta'mirlash-ishlab chiqarish korxonalari, «O'zbekkinovideoijara» korxonasi va uning joylardagi bo'limlari kiradi. Boshqa sanoat korxonalari kabi ular ham ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan barcha vositalarga ega: bino, turli qurilish inshootlari, asbob-uskunalar, jihozlar, transport vositalari, energetik resurslar, aylanma mablag'lar (xom ashyo, materiallar, pul) va boshqalar.

Kino sanoati standartlariga mos bo'lgan film tayyorlash uchun asbob-uskunalar bilan bir qatorda bu uskunalardan foydalanuvchi kadrlar ham muhim



sanaladi. Bir filmni suratga olish jarayonida qanchadan-qancha mutaxassislar ishtirok etadi. Ularning faoliyati bir biriga ko‘rinmas zanjir orqali bog‘lanadi. Rejissor o‘zi olmoqchi bo‘lgan filmi oldindan tassavvur etadi, bir qacha go‘yalar atrofida fikrlar yuritadi va mos sseneriy tanlaydi. Bu o‘z o‘zidan rejissordan to‘g‘ri tanlov va sseneriy muallifi bilan hamkorlikni talab etadi. Navbat qahramonlarni ijro etuvchi aktyorlarga yetib keladi.

Aktyor o‘z o‘rnida ijro etayotgan qahramon hayotida yashashi, uni his etishi va ayni damda aks ettira bilishi lozim. Shu shaklda ijodkorlar bir-biriga uzviy bog‘lanadi. Ijodiy jarayonda biz bilmagan qanchadan-qancha qiyinchiliklar yuz beradi. Bugun kino sanoatimizda mavjud barcha muommolarning yechimi avvalo kadrlar masalasiga borib taqaladi.

Ijodiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish kerak. Filmlarni ko‘radigan tomoshabinlarning estetik didini tarbiyalash lozim. Navoiy kutubxonasi borganimda, kitobsevarlarni kam uchrattirdim. Yoshlarning ko‘pchiligi kitob o‘qimasa-da, kino, teatrga borishadi.

Ba‘zan kinochilar uyida tomoshabinlar bilan suhbatlashib, “nega yaxshi kinolar turganida zaif asarlarga tushyapsizlar”, desam, “bu filmlarni bizga maqtashgan”, deyishadi. Ko‘rgan filmlari haqida taassurotlarini so‘rasam, ayrimlari “falonchi aktyor yaxshi o‘ynabdi-yu, lekin umuman asarning mazasi yo‘q”, deya ochiq aytishadi. Ayrim yoshlar yaxshi-yomon filmlarni bir-biridan ajrata olmaydi. Bog‘cha, maktab yoshidan bolalarning ota-onasi yoki o‘qituvchilari o‘z estetik didini shakllantirib borsa, kino san‘atiga bo‘lgan munosabati o‘zgacha bo‘lardi. Pedagogika institutlarida televideniye estetikasi bo‘yicha dars kiritish zarur, deb o‘ylayman. Bugungi – pedinstitut talabasi erta-indin murabbiy sifatida sinfga kirganda TV mahsulotini tahlil qilishi, xolis baholay olishi zarur.

Kino san‘atini yanada yuksaltirishda rejissuraning o‘rni g‘oyat muhim. Rejissyorlar boshqalardan ko‘ra ziyakroq, ssenariyni tanlay olish bilan birga, operator, aktyorlar va kompozitorlarning ko‘ngliga yo‘l topa bilishi kerak. Ko‘pincha kino taqdimotlarda qatnashganimda rejissyorlarga “Mana bu filmingiz ancha zaif”, deya kamchiliklarini aytsam, “Menda nima ayb, sseneriy bo‘sh...”, deyishadi. Axir, ssenariyni u tanlaydi-ku. Xo‘p, sseneriy talabga javob bermas ekan, nega undan yaxshi kino ishlamoqchi bo‘lishadi. Hozir ayrim rejissyorlar yaratayotgan filmlarida ham muallif yoki sherik muallif bo‘lishmoqda. Barakat topgurlar, ssenariyni to‘g‘ri kelgan odam emas, faqat iste‘dodli yozuvchi yozishini



unutmaslik kerak. Rejissyordan ssenariy yoza bilishi emas, uni ekranlashtira olishi talab etiladi.

Yozuvchi Abdulla Qodiriy 1927-yilda yozgan bir maqolasida; “Hozircha bizda kinodramaturglar yo‘q. Shu bois kinoni biladiganlarga yozuvchilarni tirkab qo‘yish kerak. Keyin ijrochilarni tanlay bilish muhim rol o‘ynaydi”, deb yozgandi. So‘ngra, “... men aktyor bo‘lganimda Otabek rolini o‘ynardim. Chunki qahramonimning xarakterini mendan yaxshi biladigan odam yo‘q”, deydi.

Bu tavsiyalarni rejissura sohasiga tatbiq qilish kerak. Komil ishonch bilan aytamanki, rejissyorlar va aktyorlarni, umuman, ijodkorlarni faqat va yana faqat o‘zimizda tayyorlash zarur. Har bir xalqning asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va ana shu xalqqa doir urf-odatlar, taomili, mentaliteti borki, ularni boshqa millat vakillari tushunmasligi yoki baholay olmasligi mumkin. G‘arb filmlariga taqlid qilib emas, madaniy merosga tayanib, hozir jo‘sh urib turgan jarayonni ekranda ifoda etishga qodir badiiy vositalarni qo‘llashimiz, zamonaviy asarlar yaratish yo‘llarini izlashimiz samara berishiga ishonaman. Muhimi, yosh ijodkorlar o‘z faoliyatining ilk pallasida merosimizni – tengi yo‘q mumtoz she‘riyatimizni, monumental me‘morchilik san‘atimizni, serjilo maqomni, rang-barang ohanglarga boy miniatyuramizni, improvizatsiyaga boy xalq teatri ruhini, tuganmas nomachilik an‘analarini his etib turadi.<sup>1</sup>

Prezident tomonidan 2021-yil 7-aprelda<sup>2</sup> «Kino san‘ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi [PF-6202](#)-son qarori imzolandi. Unda milliy kinematografiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Kinomatografiyada sohasida tahsil olayotgan talabalarni qo‘llab quvvatlash maqsadida davlat stipendiyasi hamda milliy kinematografiya sohasida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkorlar va mutaxassislarni rag‘batlantirish maqsadida «Kinematografiya fidokori» ko‘krak nishoni tasis etilishi ham yurtimizda soha va soha mutaxassislariga bo‘lgan etiborni ko‘rsatib beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishda va ular qalbida vatanparlik tuyg‘usining shakllantirishsa milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va san‘atning o‘rni beqiyosdir. San‘atning bir qismi hisoblangan kino sanoati esa yoshlar ko‘z o‘ngida shonli o‘tmishimiz,

<sup>1</sup> “Xalq so‘zi” gazetasi (online)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6202, Kino san‘ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida



bugungi hayotimiz, orzu-umidlarimizni aks ettiruvchi yoshlar ibrat olaoladigan soha hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Xalq so‘zi” gazetasi (online)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-6202, Kino san‘ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida

